O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI JARQO‘RG‘ON TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

Jarqo‘rg‘on tumani, O‘zbekiston ko‘chasi 13-uy. 190600, tel.: (+99876)432-10-94, jarqurgon.t@exat.uz, www.jarqorgon.uz

2022 - yil 23 - iyun 238-8-112-Q/22 Jarqo‘rg‘on tuman hokimligi

Jarqo‘rg‘on tumanining qishloq aholi punktlari hamda ijtimoiy soha obyektlariga ichimlik suvini maxsus texnikalarda yetkazib berish tariflarini belgilash to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6,25-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 15-iyuldagi 194-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Iste’molchilarga suv ta’minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari ko‘rsatish qoidalari”ning 118-bandi ijrosini ta’minlash maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Tumanning qishloq aholi punktlariga ichimlik suvini maxsus texnikalarda yetkazib berish tariflari 1-ilovaga muvofiq, qishloq hududidagi ijtimoiy soha obyektlariga ichimlik suvini maxsus texnikalarda yetkazib berish tariflari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Ushbu qaror “Jarqo‘rg‘on” gazetasida rasman e’lon qilish hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish tavsiya etilsin.

3. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

4. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari A.Aliyarov zimmasiga yuklatilsin.

Jarqo‘rg‘on tuman hokimi **B.A.O'raqov**

Jarqo‘rg‘on tuman hokimining
2022 yil 23 iyundagi
238-8-112-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Tumanning qishloq aholi punktlariga ichimlik suvini maxsus texnikalarda yetkazib berish

T A R I F L A R I

№	Hududlar nomi	Suv olish nuqtasidan aholi punktigacha bo‘lgan o‘rtacha masofasi (km)	QFY soni	Hudud bo‘yicha o‘rtacha tarif		
				so‘m/ tn-km	so‘m/tn	so‘m/ litr
1.	Uzumzor MFY	21	1	1910	20000	20
2.	Matonat MFY	20	1			
3.	Oftobqo‘rg‘on MFY	19	1			
4.	Mustaqillik MFY	20	1			
5.	Xalqobod MFY	25	1			
6.	Obi-hayot MFY	32	1			
7.	G‘ur-g‘ur MFY	17	1			
8.	Qiron MFY	16	1			
9.	Minchinor MFY	20	1			
10.	Maslahattepa MFY	45	1			
Jami		**235**	**10**	**x**	**x**	**x**

Jarqo‘rg‘on tuman hokimining
2022 yil 23 iyundagi
238-8-112-Q/22-son qaroriga
2-ilova

Tumanning qishloq hududidagi ijtimoiy soha obyektlariga ichimlik suvini maxsus texnikalarda yetkazib berish

T A R I F L A R I

QQSsiz

№	Hududlar nomi	Suv olish nuqtasidan aholi punktigacha bo‘lgan o‘rtacha masofasi (km)	Ijtimoiy muassasa soni	Hudud bo‘yicha o‘rtacha tarif		
				so‘m/tn-km	so‘m/tn	so‘m/ litr
1.	Uzumzor MFY	21	1	1910	20000	20
2.	Matonat MFY	20	1			
3.	Oftobqo‘rg‘on MFY	19	1			
4.	Mustaqillik MFY	20	1			
5.	Xalqobod MFY	25	1			
6.	Obi-hayot MFY	32	1			
7.	G‘ur-g‘ur MFY	17	1			
8.	Qiron MFY	16	1			
9.	Minchinor MFY	20	1			
10.	Maslahattepa MFY	45	1			
Jami		**235**	**10**	**x**	**x**	**x**